

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 177 (966), 2023-yil 31-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## SADOQAT BILAN MEHNAT QILGANLAR E‘TIROFGA SAZOVOR

Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligi munosabati bilan bir guruh yurtdoshlarimiz faxriy unvonlar, orden va medallar bilan, chet ellik investorlar “Do‘stlik” ordeni bilan mukofotlangan edi.



30-avgust kuni Ko‘ksaroyda ushbu mukofotlarni topshirish marosimi bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari marosim ishtirokchilarini, avvalo, Mustaqillik bayrami bilan tabriklab, ezgu tilaklarini izhor etdi. Bu davrda mamlakatimiz katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan, barcha sohalarida o‘zgarishlar bo‘layotgani ta‘kidlandi.

— Xalq manfaatini ta‘minlash, inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan harakatlarni davom ettirish maqsadida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini ishlab chiqdik. Uning loyihasini muhokamaga qo‘yganimizda 1 milliondan ko‘p takliflar kelib tushdi. Bu nimadan dalolat? Xalqimiz befarq emas. Yo‘nalishlarimizni, kamchiliklarimizni ko‘rsatib beryapti. Bu biz uchun “yo‘l xaritasi”. Davlatga eng katta hakam — xalq, — dedi Prezident.

Bu muhim hujjatda Vatanimiz mustaqilligini va tinchligini asrash, kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, xalqimiz hayotini obod

va farovon qilish, farzandlarimizni barkamol etib tarbiyalash vazifalari belgilangan. — Sodda qilib aytganda, bizning maqsadimiz bitta: u ham bo‘lsa, Yangi O‘zbekistonda xalqimiz yayrab ishlaydigan, hayotdan rozi bo‘lib, yayrab yashaydigan davlat qurishdan iborat, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Buning zamini, avvalo, tinchlik, barqarorlik. Xalqimiz buning qadriga yetib, intilish, mehnat ruhida yashamoqda. Yangi-yangi zamonaviy sanoat korxonalarini ishga tushirilmog‘da. Ilm-fan, texnologiyalar, xizmat ko‘rsatish borasida muhim natijalar qo‘lga kiritilmog‘da. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, mamlakatimizning iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichi 5,7 foizni tashkil etdi.

Bugungi kunda yurtimizning barcha hududlarida shinam uy-joylar, yo‘l va ko‘priklar, shifoxonalar, bog‘cha, maktab, madaniyat va sport markazlari bunyod etilmog‘da. Tabiat qiyinchiliklariga

qaramasdan, qishloq xo‘jaligi ekinlaridan mo‘l hosil olinib, oziq-ovqat xavfsizligini, xalqimiz dasturxonini to‘kinligini ta‘minlashga erishilmog‘da.

Shular haqida gapirar ekan, Prezidentimiz ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning “Bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash — odamiylikning eng oliy mezonidir”, degan so‘zlarini keltirdi.

Buning ifodasini aholining ijtimoiy hiyomoyaga muhtoj qatlamiga, jumladan, keksa avlod vakillari, ayollar va yoshlarga g‘amxo‘rlikda yaqqol ko‘rish mumkin. Kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, sifatli ta‘lim berish, zamonaviy kasb-hunarlariga o‘rgatish, infratuzilmani yaxshilash hisobidan respublikamizda kambag‘allik darajasi sezilarli pasaymog‘da.

Davlatimiz rahbari mahallalardagi ishlarini, odamlarning faolligini qayd etdi.

— Biz birinchi kundan xalq ichiga kirib boryapmiz. Ko‘p tizimlarni mahallaga tushiryapmiz. Nimaga? Mahalla — davlatligimizning zamini. Agar 9 ming 400 ta mahalla tinch bo‘lsa, yurtimiz tinch bo‘ladi. Investitsiya ham, ta‘lim-tarbiya, qurilish, obodonlashtirish ham mahallada bo‘lsa, qanday o‘zgarish bo‘ladi?! Mana, “Ochiq budget” orqali odamlar o‘z muammosini olib chiqib, ovoz berib, o‘zi nazorat qilyapti. Shuning uchun mahalla tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlarimizni qat‘iy davom ettiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident marosimga yig‘ilganlarni nomma-nom tilga olib, davlat mukofotlari bilan tabriklandi. Ularni Yangi O‘zbekistonning chinakam bunyodkorlari sifatida qadrlashini ta‘kidlab, fidokorona mehnati, yosh avlodga ibratini uchun minnatdorlik bildirdi.

— Baxt nima o‘zi? Farzandlar bag‘rida sog‘-salomat yurish, oilada, el-yurtda aziz

bo‘lish, halol qilgan mehnatning qadriini ko‘rish. Butun xalqimiz sizlar bilan faxrlanadi, sizlarga havas bilan qaraydi. Ilohim, mana shunday obro‘, mana shunday hurmat-e‘tibor sizlarni hech qachon tark etmasin, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shundan so‘ng, mukofotlanganlarga faxriy unvon, orden va medallar tantanali ravishda topshirildi. Ma‘lumki, milliy o‘zligimizni ang‘lash nuqtayi nazaridan, Prezidentimiz tashabbusi bilan “Imom Buxoriy” ordeni ta‘sis etilgan. Yurtimiz va mintaqamizda muqaddas islom dinini asrash, ilmiy merosni o‘rganish va musulmonlarga yetkazish yo‘lida ma‘naviy jasorat ko‘rsatib yashagan ikki buyuk vatandoshimiz, marhum muftiylar — shayx Ziyovud-dinon ibn Eshon Boboxon hamda shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari “Oliy Darajali Imom Buxoriy” ordeni bilan mukofotlangan edi. Tadbirida

ularning farzandlariga ushbu tabarruk nishon topshirildi.

— Bugun men sizlarning ochiq chehrangiz, baxtiyor ko‘zlaringizni, sizlardagi baland ruhni ko‘rib, ochig‘ini aytсам, go‘yoki o‘zim ham mukofot olgandek xursand bo‘lib turibman. Niyatim: ko‘ksingizga yarashib turgan mana shu yuksak unvon va nishonlar sizlarga yangi-yangi kuch-g‘ayrat baxsh etsin, — dedi Prezident.

Mukofotlanganlar yuksak e‘tibor uchun minnatdorlik bildirib, xalqimizga ezgu tilaklar bildirdi.

O‘ZA

## “ACWA POWER” KOMPANIYASI BILAN STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH REJALARI QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30-avgust kuni Saudiyaning “ACWA Power” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyanni qabul qildi.

Ushbu kompaniya bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish va mamlakatimizdagi ustuvor loyihalarni jadal-lashtirish masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bugungi kunda O‘zbekiston energetika tarmog‘ini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga eng ko‘p investitsiya kiritayotgan “ACWA Power” bilan samarali sheriklik darajasini alohida mamnuniyat bilan qayd etdi.

Zamonaviy issiqlik elektr stansiyalari, shamol va quyosh energetikasi obyektlari, energetika infrutuzilmasini barpo etish, “yashil” vodorod ishlab chiqarish, ilg‘or texnologik yechimlar asosida usku-na va butlovchi qismlarni mahalliy lashtirish loyihalarini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

Bundan tashqari, Muhammad Abunayyan hamraislik qilayotgan qo‘shma Ishbilarmonlar kengashi doirasida Saudi-

yaning yetakchi kompaniya va bank institutlarini O‘zbekistonga jalb qilish borasidagi ishlarini davom ettirish muhimligi ta‘kidlandi.

Uchrashuv yakunida “ACWA Power” raisi uning faoliyati yuksak baholangan va davlat mukofoti — “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangani uchun O‘zbekiston yetakchisiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

O‘ZA

### BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

## O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIK DAVRIDA ASOSIY BOSQICHLAR VA ISTIQBOL

Ayni kunlarda yurtimizning barcha shaharu qishloqlari, mahallalarida davlatimiz mustaqilligining 32 yilligi yuksak shod-u xurramlilik, ko‘tarinki ruh va o‘zgacha yuqori kayfiyat bilan nishonlanayotir.

Bugun o‘tmishga nazar tashlar ekanmiz, o‘sha davrda yangi mustaqil davlatlarni qanday istiqbol kutayotganini hech kim aniq bilmaganini yaqqol ko‘ramiz. O‘zbekiston ham ancha mashaqqatli taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tishi kerak edi.

Shunga qaramay, o‘zbek xalqining oqilligi va hamjihatligi tufayli O‘zbekiston mana shunday og‘ir davrda ham tinch taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga, eng muhimi, turli kataklizmlar, iqtisodiy betartibliklarning oldini

olishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq adolat uchun ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston xalqi mustaqil taraqqiyot davrida hozir ekspertlar tomonidan muayyan siyosiy va iqtisodiy turg‘unlik davri sifatida tavsiflanadigan davrni ham boshidan kechirishiga to‘g‘ri keldi.

Davomi 3-betda

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN XORIJIY ELCHILARNING ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

30-avgust kuni mamlakatimizga yangi tayinlangan xorijiy elchilar tomonidan ishonch yorliqlarini topshirish tantanali marosimi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi elchisi Yuy Szyun, Malayziya elchisi Ilhom Tua Bin Ilyos, Buyuk Britaniya elchisi Timoti Smart, Turkmaniston elchisi Shodurdi Meredov va Bangladesh Xalq Respublikasi elchisi Muhammad Monirul Islomdan ishonch yorliqlarini qabul qildi.

Davlatimiz rahbari xorijiy diplomatik vakolatxonalarining yangi tayinlangan rahbarlarini O‘zbekistondagi faoliyati rasman boshlangani bilan samimiy qutladi.

Tantanali marosim O‘zbekistonning ko‘pmillatli xalqi davlat mustaqilligining 32 yilligini keng nishonlayotgan paytda o‘tkazilayotgani ramziy ma‘noga ega ekan qayd etildi.

Joriy yilda mamlakatimizda umume‘tirof etilgan demokratik normalarga muvofiq muhim siyosiy tadbirlar — yangilangan Konstitutsiyani qabul qilish bo‘yicha referendum va Prezident saylovi muvaffaqiyatli o‘tkazilgani ta‘kidlandi. Ularning natijalari amalga oshirilayotgan islohotlar ortiga qaytmassligini mustahkamlab qo‘ydi. Bu “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham o‘z ifodasini topdi.

O‘zbekiston yetakchisi dunyoda geosiyosiy keskinlik kuchayib, o‘zaro

ishonch susayib borayotgan, turli mintaqalarda yangi nizo o‘choqlari vujudga kelib, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga tahdidlar ortayotgan sharoitda O‘zbekiston ochiq va pragmatik tashqi siyosat yuritayotganini alohida ta‘kidladi. Jahondagi barcha mamlakatlar bilan o‘zaro hurmat va amaliy hamkorlikka asoslangan munosabatlar tizimli rivojlanmog‘da. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar va mintaqaviy tuzilmalar bilan ko‘p tomonlama sheriklik mustahkamlanmog‘da.

Joriy yilda mamlakatimizda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammiti, Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya hamda Jahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi bo‘lib o‘tadi.

Davlatimiz rahbari yangi elchilar va-killik qilayotgan mamlakatlar bilan munosabatlarini sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi darajaga olib chiqishga doir qator muhim masalalarga e‘tibor qaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xitoydan yangi tayinlangan elchiga murojaat qilar ekan, Pekin bizning ishonchli va vaqt bilan sinalgan do‘stlarimizdan biri ekani, u bilan munosabatlar keyingi

yillarda har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganini qayd etdi.

— Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szipin janoblarining bir yil avval mamlakatimizga amalga oshirgan tarixiy davlat tashrihi hamda joriy yil may oyida Sian shahrida bo‘lib o‘tgan “Markaziy Osiyo — Xitoy” sammiti doirasidagi samarali uchrashuvimiz ikki tomonlama munosabatlariga kuchli sur‘at bag‘ishladi, — dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida o‘zaro savdoni ko‘paytirish, Xitoyning yetakchi kompaniyalari bilan yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar borasidagi sheriklikni kengaytirish, “yashil” iqtisodiyot, raqamlashtirish, sun‘iy intellekt, qayta tiklanuvchi energetika, ilg‘or sanoat va infratuzilma, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, tibbiyot va farmatsevtika bo‘yicha qo‘shma loyiha va dasturlarni ro‘yobga chiqarish, fan-ta‘lim va madaniy almashinuvlarni jadallashtirishga alohida e‘tibor qaratilmog‘da.

Oktabr oyida Xitoyda bo‘lajak “Bir makon, bir yo‘l” xalqaro forumi doirasida oliy darajali uchrashuv o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Davomi 2-betda

## SHUKUH

VATAN BAG'RIDA  
BO'L BEDORSirojiddin SAYYID,  
O'zbekiston xalq shoiri

Vatan bag'rida bo'l bedor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q,  
G'amu dardiga bo'l darkor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Valilar gar Vatan derlar,  
safar andar Vatan derlar,  
Vatan ichra vatanlar bor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Jahonda mulku davlat ko'p,  
musofir xalq-u millat ko'p,  
Kelib ketguvchilar bisyor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Bu keng olamda sayyohlar  
kezar — teng yarmi gumrohlar,  
Ulardan tinglar istig'for,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Shu tuproq — Yer yuzi yanglig',  
Buxoriy, Termiziy yanglig',  
Senga nomus erur ham or,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Vatan — Boborahim Mashrab,  
hamon so'z aytadir qaqshab,  
Agar bo'ynidadir ming dor —  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Yonib shom-u saharlarda,  
olov bo'lgil shafaqlarday,  
Yalov bo'l ham yalovbardor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Uni mangu va betakror  
yaratmish Qodiri Qahhor,  
Guvohdir gumbazi davvor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Bu alvon lola maydoni —  
ko'milgan Jizzax isyoni,  
Shahidlar qonidan gulzor —  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

To'lab Cho'lponlari o'lpon,  
yotibdir shoir-u cho'pon,  
Yurak bag'ri jarohatyor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Kelib ko'r bog'u ayvonin,  
Adiblarning xiyobonin,  
Adab ham yodiga yodgor —  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Qolib-ketguvchilar bisyor,  
nolib ketguvchilar bisyor,  
Ulardan bo'lmagil zinhor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Uchar gar qosh-u mijgoning —  
kutar tandirdagi noning,  
Onangday mushfiq-u xoksor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Bu olamda yagonangdir,  
otang yotgan sag'onangdir —  
Xasu xorida ming asor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Uni kimlar havas etmas,  
unga cheksiz nafas yetmas,  
Buyuk izhor-u ham iqror,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Yaralmish shavkat-u shondan,  
matonat birla iymondan,  
Vatan sevganga tole yor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Falak o'pgan imoratlar,  
dilu jondan iboratlar,  
Vatan paydodir-u poydor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Xatarnok aylanur olam,  
bu nolam senga, jon bolam,  
Sen ogoh bo'l-u ham hushyor,  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

Sen unga obu otash bo'l,  
navobaxsh-u davobaxsh bo'l,  
Jafokash bo'l-u xizmatkor —  
Vatan hech qayga ketgan yo'q.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI YANGI TAYINLANGAN  
XORIJIIY ELCHILARNING  
ISHONCH YORLIQLARINI QABUL QILDI

► Бошланиши 1-бетда

Malayziya — O'zbekistonning Janubi-Sharqiy Osiyodagi muhim hamkori.

— Munosabatlarni o'zaro hurmat va an'anaviy do'stlik tamoyillari asosida izchil rivojlanmoqda. Davlatlarimizning dolzarb global va mintaqaviy masalalarga doir qarashlari va yondashuvlari o'xshash yoki yaqin, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Elektronika va elektrotexnika, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat sanoati, turizm, ta'lim va boshqa yo'nalishlarda hamkorlikni yanada rivojlantirish, Malayziyaning yetakchi kompaniyalari, ayniqsa, neft-kimyo korxonalarini bilan sheriklik aloqalarini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Toshkent va Urganch shaharlarida Malayziyaning "Binari" universiteti muvaffaqiyatli ish-lamoqda.

Faol o'zaro tashriflar ham oliy darajadagi uchrashuvlar uchun yaxshi zamin yaratmoqda. Jahonda ulkan siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega Buyuk Britaniya O'zbekistonning uzoq muddatli va muhim hamkoridir.

Keyingi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasida do'stlik va o'zaro hurmatga asoslangan keng aloqalar yo'lga qo'yilib, barqaror rivojlanmoqda, yangi loyihalar va aniq dasturlar bilan boyimoqda.

Parlamentlar, sud idoralari, adliya, ta'lim va moliya vazirliklari o'rtasidagi sheriklik kengaymoqda.

O'zbekiston va Buyuk Britaniya Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan dasturlar bilan boyimoqda.

Iqtisodiy yo'nalishda o'zaro savdo hajmi yuqori sur'at bilan o'smoqda.

O'zbekiston rahbari mamlakatimiz investitsiyalar va innovatsiyalar sohasidagi ishga solinmagan ulkan salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarishdan manfaatdor ekanini qayd etib, bank ishi va moliya, raqamli iqtisodiyot, "yashil" energetika, geologiya, kimyo va boshqa ustuvor yo'nalishlarda yangi qo'shma loyihalarni amalga oshirish taklifini bildirdi.

Turkmaniston — eng yaqin qo'shnimiz. Tili, dini va urf-odatlari musharak bo'lgan xalqlar-

imiz ko'p asrlar davomida yonma-yon yashab kelmoqda.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni keyingi yillarda barcha yo'nalishlarda — siyosat, parlamentlararo aloqalar, savdo va iqtisodiyot, transport, energetika, suv va qishloq xo'jaligida, madaniy-gumanitar sohada yangi darajaga ko'tarilgan mamnuhiyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston Prezidentining Ashxobodga yaqindagi tashrifi, Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov bilan sarmahsul muzokaralar strategik sheriklikning yanada chuqurlashishiga xizmat qildi.

— Biz savdo aloqalarini kengaytirish, iqtisodiy sohada hamkorlikni mustahkamlash va aniq loyihalarni amalga oshirish, yuk tashish va tranzit hajmini ko'paytirish uchun ulkan salohiyatga egamiz, — dedi O'zbekiston yetakchisi.

Ko'p qirrali aloqalarni, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa yetakchi xalqlar va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi yaqin muloqotni va o'zaro qo'llab-quvvatlash amaliyotini davom ettirish niyati bildirildi.

Bangladesh Xalq Respublikasi — Janubiy Osiyo va butun islom olamida tez rivojlanayotgan davlat. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi muloqotlar faollashgan.

Siyosiy va savdo-iqtisodiy yo'nalishlarda "yo'l xaritalari" qabul qilingan. To'qimachilik, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, turizm tarmoqlarida sheriklikni kengaytirish, yangi investitsiya loyihalari va qo'shma dasturlarni amalga oshirish istiqbollari belgilab olingan.

Marosim yakunida O'zbekiston Prezidenti elchilarga mas'uliyatli va sharafli faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tiladi, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada yuksaltirish uchun faolroq ishlash va hududlarimizga ko'proq borishga chaqirdi.

Diplomatlar samimiy qabul, samarali faoliyatiga yaratilgan sharoitlar uchun minnatdorlik bildirib, bor bilim va sa'y-harakatlarini ikki tomonlama aloqalarini yanada rivojlantirishga qaratishlarini ta'kidladilar.

O'ZA

## YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

## ... BIR MARTA KO'RGAN YAXSHI

Toshkent tumanida "Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" shiori ostida tashkil etilgan press-tur yaqinda chop etilgan "Xoja Ahmad Yassaviy" kitobining taqdimoti bilan boshlandi.

Dastlab OAV vakillari tasavvufning "Yassaviya" tariqati asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy hamda uning Qozog'istonda joylashgan maqbarasi haqidagi hujjatli film namoyishi va kitob mualliflarining fikrlari bilan tanishdilar.

Shundan so'ng tumanida joriy yilda amalga oshirilgan ishlarga bag'ishlangan hujjatli film namoyishi etildi. Yil hisoboti tarzida ko'rsatilgan mazkur film fikr-mulohazalariga boy matbuot anjumaniga aylanib ketdi.

Kitob taqdimoti, hujjatli film namoyishi, hokim ishtirokidagi savol-javoblardan so'ng tumanidagi o'zgarish va yangilanishlarni ko'zdan kechirish maqsadida Keles yo'li ko'chasida barpo etilgan ko'pxonadonli uylar va bu yerda yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

## Istiqlol bergan imkoniyatlar

— Istiqlol tufayli erishgan yutuqlarimizni, xalqimiz istiqbolida ochildan imkoniyatlarini sanab adog'iga yetish qiyin. Jumladan, qishloqlarimizning qiyofasi tubdan o'zgarib, shahardagi kabi eng zarur sharoitlarga ega turar joy binolari qurilayotgani ham shu davrda yuz bergan va davom etayotgan o'zgarishlar, erishgan yutuqlarimiz samarasidir, — dedi tuman hokimi Odilxon Rustamov. — 240 mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan tumanimiz aynan keyingi yillardagi islohotlar natijasida tubdan o'zgardi. Birgina shu yilning o'zida 380 ta xonadonli 6 ta ko'p qavatli uy-joy

qurildi. Iqtisodiyot va aholini zarur infratuzilma bilan ta'minlash borasida ham keng ko'lami ishlar amalga oshirilmog'da. Sog'liqni saqlash tizimida tub buriilishlar yuz berdi. Fayziobod mahallasida joylashgan "Tumanlararo perinatal markaz" 110 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, yiliga o'rtacha 5,5 mingga yaqin tug'uruq qayd etilgan.

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida perinatal tibbiy yordamni maqsadli yo'naltirish to'g'risida"gi qaroriga asosan, mamlakatimizda tashkil etilishi lozim bo'lgan 46 ta tumanlararo perinatal markazlar ro'yxatiga Toshkent tumani tug'uruq kompleksi ham kiritilgan edi. Bugun ushbu kompleks "Tumanlararo perinatal markaz" sifatida faoliyat yuritmoqda. Sanoat, ta'lim, ijtimoiy himoya, turizm sohasida ham yangilik va o'zgarishlar oz emas. Asosiysi, aholimiz tafakkuri, shijoati butunlay ko'tarinki manzara kasb etgan.

## Salomatlikka nima yetsin

Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi degan naqlga amal qilgan holda "Tumanlararo perinatal markaz" sari yo'l oldik. Mazkur tibbiyot muassasasida qo'shimcha 10 o'rinli chaqaloqlar patologiyasi, 6 o'rinli chaqaloqlar reanimatsiyasi bo'limlari tashkil etilgan. Bu og'ir ahvolda va kam vazn bilan tug'ilgan chaqaloqlarga o'z vaqtida, samarali xizmat



## BIZ VA DUNYO

## "FORBES":

O'ZBEKISTON PREZIDENTI  
BARCHA QO'SHNI MAMLAKATLAR BILAN  
MUNOSABATLARNI TIKLADI

fuqarolik jamiyatiga erkinlik berdi hamda iqtisodiyotni ochiq va zamonaviylashtirish dasturini ilgari surdi

AQSHning mashhur "Forbes" moliyaviy-iqtisodiy jurnalida taniqli jurnalist va tahlilchi Kennet Rapozaning "O'zbekiston rahbari Shavkat Mirziyoyev islohotlar uchun ko'proq vaqt ajratmoqda" sarlavhali maqolasi chop etildi.

"O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shu yil 9-iyul kuni bo'lib o'tgan muddatidan ilgari mamlakat Prezidenti saylovidagi hal qiluvchi g'alabasi davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishi va iqtisodiy yangilanishlarni kuchaytirishdan darak bermoqda, — deb yozadi ekspert Kennet Rapoza. — Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda birinchi marta prezidentlikka saylanganidan beri Amerika Qo'shma Shtatlari bilan yaqin munosabatlarni rivojlantirdi va savdo sheriklarini diversifikatsiya qilish uchun harakat qilmoqda".

Maqolada ushbu lavozimni egallaganidan beri Shavkat Mirziyoyev Prezident Donald Trump davrida Oq uyga tashrif buyurgani va Washington bilan yaqin aloqalarni rivojlantirayotgani qayd etilgan.

Muallif mamlakatdagi islohotlarni tahlil qilgan ekan, "Bluestone" investitsiya banki prezidenti Kuinn Martinning quyidagi so'zlaridan iqtibos keltirgan: "Shavkat Mirziyoyev kermani 180 gradusga burib, yangi yo'nalish sari boshladi. U barcha qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarni tikladi, fuqarolik jamiyatiga erkinlik berdi hamda iqtisodiyotni ochiq va zamonaviylashtirish dasturini ilgari surdi. Hali ko'plab muammolar mavjud, ammo bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlar juda ajoyib".

"Forbes"da bosilgan ushbu maqolada O'zbekiston Prezidenti xususiy lashtirishni qamrab oluvchi ulkan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlayotgani alohida urg'ulangan. Ta'kidlanganidek, mahalliy chakana investitorlarni jalb qilishga qaratilgan "Xalq IPO" tashabbusi va muhim davlat aktivlarini sotish

ochiq bozor iqtisodiyoti sari sezilarli siljishini bildiradi.

Jurnalda davlatimiz rahbarining mart oyida e'lon qilingan yangi xususiy lashtirish rejasida turli hududlardagi 1000 ta davlat korxonasi, 1500 gektar yer va 10 million kvadrat metr dan ortiq ko'chmas mulkni sotish nazarda tutilgani haqida so'z yuritilgan.

"Ushbu chora-tadbirlar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, O'zbekistonning pozitiv obro'sini korporativ sarmoyalarni qabul qiluvchi davlat sifatida ko'tarishdir, — deya qayd etadi muallif. — Shuningdek, O'zbekiston yetakchisining fuqarolik jamiyati erkinliklari va korrupsiyaga qarshi choralariga qaratilgani bilan ajralib turadigan boshqaruv uslubi juda ilg'or. Mamlakat rahbari O'zbekiston uchun muvaffaqiyat tarixiga aylanmoqda va sobiq sovet davridan qolgan an'anaviy siyosatdan qaytmoqda".

"Forbes" O'zbekistonda AQSH investitsiyalari hajmi ortib borayotganiga alohida e'tibor qaratgan. "May oyida sanoat gazi ishlash chiqaruvchi "Air Products" va "Chemicals of Allentown" kompaniyalari O'zbekiston hukumati bilan "O'zbekneftgaz" kompaniyasining qayta ishlash bo'linmasini sotib olish bo'yicha 1 milliard dollarlik investitsiya kelishuvini e'lon qildi. Yanvar oyida "American Soybean" kompaniyasi O'zbekistonda ilgari foydalanilmagan yerlarda soya yetishtirish va ularni soya hamda soya uni uchun qayta ishlashga 300 million dollardan ortiq sarmoya kiritishga rozi bo'lgani xabar qilingan edi", deb ta'kidlanadi materialda.

Maqola yakunida: "Kelgusi bir necha yil jamoatchilik ishonchini saqlab qolish uchun juda muhim bo'ladi. O'zbekiston o'z oldiga qo'yan maqsadlariga erishishi kerak. Odamlar avvalgidek islohotning tez sur'atlarini kutmoqda", — deb yozadi Kennet Rapoza.

"Dunyo" AA  
Washington



ko'rsatishni ta'minlaydi. Muassasadagi 35 nafar shifokorning barchasi yurtimizdagi nufuzli tibbiyot muassasalarida alohida tashkil etilgan o'quv kurslarida malaka oshirgan. Markaz zamonaviy tibbiy asbob-uskuna va buyumlar bilan to'liq jihozlangan. Buning uchun 2,1 milliard so'm mablag' sarflangan.

Ushbu perinatal markaz nafaqat Toshkent, shuningdek, Qibray va Zangiota tumanlari aholisi, jumladan, yuqori xavfli perinatal asoratlari bo'lgan homilador va tuqqan ayolarda hamda yangi dunyoga kelgan chaqaloqlar uchun yuqori texnologiyali ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatib keladi.

## Eskisi buzildi, yangisi qurildi

Hududdagi 1939-yilda qurilgan 140 o'rinli bog'cha o'rinda "Silver Ston Bilding" MCHJ tomonidan barpo etilgan 9-maktabgacha ta'lim tashkiloti ham e'tirofga munosib joylardan biri ekan.

Eski bog'cha o'rinda bugungi kunda 560 o'rinli zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti bunyod etilgani ham mustaqillik bayramiga o'ziga xos tuhfa bo'ldi. U Hasanboy, Bahor mahallalari hududlaridagi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlarni qamrab olgan.

## "Gulzor"ga xush kelibiz

Joriy yilda foydalanishga topshirilgan yangi inshoot — "Gulzor" madaniyat markazi tuman aholisining eng gavjum va sevimli maskanlaridan biriga aylanib ulgurdi.

— 3-sektor hududida qad rostlagan mazkur madaniyat markazi 140 o'rinli bo'lib, 3 mil-

liard so'm evaziga qurib bitkazildi. Bu yerda aholi madaniy hordiq chiqarishi uchun turli madaniy-ma'naviy tadbirlar o'tkaziladi, ulg'ayib kelayotgan avlod vakillari uchun to'garaklar ham faoliyat yuritmoqda, — deydi tuman hokimining matbuot kotibi Dilafroz Ismoilova. — "Rassomlik va libos yaratish", "Raqs va badiiy gimnastika", "Milliy cholg'u — dutor", "Zarbi cholg'u" va "Gitara" to'garaklari nafaqat tumanimiz ahlining madaniy dam olishiga, ma'naviy tafakkuri teranlashuviga, balki hududda istiqomat qiluvchi yoshlarning madaniyat va san'atga bo'lgan qiziqishlari ortishiga ham xizmat qiladi. Asosiysi, tumanimiz aholisi va yoshlarining madaniy va ma'naviy dam olishi, o'z qiziqishlarini yanada shakllantirish uchun ajoyib bir g'osa yaratildi...

Kun yakunida jumaliy tuman markazidagi sayloqda tashkil etilgan tantanali tadbirda ishtirok etdi. Bayramona bezatilgan turli ko'rgazmalar, tuman salohiyatini aks ettiruvchi yarmarka, badiiy chiqishlar, sport, madaniyat va ta'lim sohasining yorqin namunalari press-tur ishtirokchilariga birday manzur bo'ldi. Xushovoz xonadonlar ijrosidagi kuy-qo'shiqlar, dilbar raqslar guldastasi yurtimizda keng nishonlanayotgan bayramlarning go'zal va yorqin aks sadosi bo'lib yangradi. Toshkent tumanining o'tmishi va buguni haqidagi yangiliklar, ulkan bunyodkorlik va barcha sohadagi izchil islohotlarning salmoqli natijalari esa to'g'ya to'yanadek ko'ngillarni xushnud etadi.

Gulichehra DURDIYEVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri









31-AVGUST — QATAG‘ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

# MILLIY TARIXNI QAYTA TIKLASH OSON KECHMAGAN...

## OQLANGANLARNING AKSARIYATI TURKISTONDAGI JADIDCHILIK NAMOYANDALARIDIR

### Baxtiyor HASANOV, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilan uning ma‘naviy hayotida yangi – uyg‘onish, o‘zlikni anglash davri boshlandi. Avvalgi ma‘muriy buyruqbozlik tizimi manfaatlariga bo‘ysundirilgan tarixni soxtalashtirish, noto‘g‘ri talqin etishga barham berildi. Milliy mafkuramizning asosi bo‘lmish milliy tarixni qayta tiklash imkoniyati tug‘ildi. Tabiiyki, bu jarayon oson kechmadi...

### NKVD qamoqxonasida muzeyga aylantirildi

Bu borada qilingan eng xayrli va savobli ishlardan biri sovet hokimiyati yillarida "xalq dushmani", "aksilingilobchi", "millatchi", "quloq" sifatida qatag'on etilgan yurtodoshlarimizning pok nomlari oqlanishi bo'ldi. Tarixiy haqiqat va adoladni tiklash bo'yicha ishlar, eng avvalo, hurriyat yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirishga qaratildi. Toshkentda "Shahidlarning xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etilib, uning hududida Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tashkil etildi.

2017-yil 31-avgust — Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni munosabati bilan Prezidentimiz "ushbu muzey — muzeylarning muzeyi" deb yuksak baho berar ekan, viloyatlarda ham uning bo'limlarini tashkil etish taklifini kiritib, ular xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun muqaddas ziyoratgoh, ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lib qolishi kerakligini ta'kidladi.

### Sensor kiosklar va monitorlar tarix sinoatlaridan so'zlaydi

2020-yil 8-oktabrda Prezidentimizning "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilinishi esa tarixiy adolat tiklanishi va shahidlar xotirasini abadiylashtirilishi borasidagi ishlarni yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Farmoyish asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta "Qatag'on qurbonlari" xotira kitoblari tayyorlandi. Ularga qatag'on qurboni bo'lgan 40 mingga yaqin vatandoshimizga oid ma'lumotlar kiritildi.

Shuningdek, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi ekspozitsiyasi "Yangi O'zbekiston: Uchinchi Renessans asoslari" konsepsiyasi asosida tubdan yangilandi. Zamonaviy sensor kiosklar va monitorlar bilan jihozlandi.

Muzey hamda hududiy muzeylarning asosiy vazifasi tashrifchilarni qatag'on siyosatini tarixi bilan tanishtirish, qatag'on qurbonlarini yod olish, yoshlarni ularning eng yaxshi an'analari asosida tarbiyalashdan iborat. Ularning ilmiy-ma'rifiy maqsadi esa mustamlaka davridagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni o'rganish, anglash, qatag'on siyosatining fojiali oqibatlarini tadqiq qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalarga sadoqat ruhida tarbiyalashdir.

Bu borada Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi tomonidan Vataniy xotirachilari kuni, Xalqaro muzeylar kuni, Xotira va qadrlash kuni, Qatag'on qurbonlarini yod

etish kuni, Mustaqillik bayrami munosabati bilan muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar alohida ahamiyatga ega. Xususan, muzey tomonidan turli mahalliy va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda 2002-2022-yillar mobaynida 50 ga yaqin konferensiya, 700 dan ortiq ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbir, seminar o'tkazildi. Albatta, bu tadbirlar hisob-top uchin emas, yurt, millat sha'ni, qimmatli tiklanayotgan muhim davrda o'tkazilgan bo'is ham katta taassurot qoldirdi.

### "Kindik qoning to'kilgan yurt sharafini himoya qila olmaslik – bu o'limgidir!"

2022-yil 7-aprel kuni Haydar Aliyev nomi-dagi Ozarbayjon madaniyat markazi bilan hamkorlikda "Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlarining qatag'on fojiasi: bir tarix, bir taqdir" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Ushbu anjumanda mazkur ikki xalq ma'rifatparvarlari ko'tarib chiqqan olamshumul loyihalar borasida qizg'in mulohakama ham bo'lib o'tdi.

"Shahidlarning xotirasi" jamoat fondi bilan hamkorlikda mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida esa ishtirokchilar-ga ma'lumot va xulosalar taqdim etildi.

Joriy yil 17-mayda "Yangi O'zbekiston tarixshunosligida Turkiston muxtoriyati tarixining o'rganilishi: yangicha yondashuv va tadqiqotlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida esa ishtirokchilar-ga ma'lumot va xulosalar taqdim etildi.

2022-yilda o'tkazilgan yana bir anjuman-ga to'xtalish o'rinni. Samarqand shahrida Turkistonning jadidchilik harakatining yetuk vakillaridan biri, ma'rifatparvar, tilshunos olim Sayid Rizo Alizoda tavalludining 135-yilligiga bag'ishlab 11-oktabrda katta ilmiy anjuman o'tkazildi. 1937-yilda qatag'on qilingan ushbu shaxs ham o'z umri va jonini Vatani uchun, uning hur, ozod bo'lishi, xalqning farovon, tinch yashashi uchun fido qilgan inson hisoblanadi. Uning 1920-yil "Hurriyat" gazetasida e'lon qilingan "Turkiston bizning Vatanimiz" maqolasidagi quyidagi fikrlar bugungi yoshlarni vatandoshlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi: "Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsang, uning sharafini himoya qilmasang, (ona diyoring) oyoqostini bo'lishi, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajinabiy o'z vatani shon-shavkati uchun sening ota-bobolaring uchun fido qilgan inson hisoblanadi. Uning 1920-yil "Hurriyat" gazetasida e'lon qilingan "Turkiston bizning Vatanimiz" maqolasidagi quyidagi fikrlar bugungi yoshlarni vatandoshlik ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi: "Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsang, uning sharafini himoya qilmasang, (ona diyoring) oyoqostini bo'lishi, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajinabiy o'z vatani shon-shavkati uchun sening ota-bobolaring uchun fido qilgan inson hisoblanadi.

Muzey tashkil topgandan buyon fondi boyitishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlabki yillarda fondga bor-yo'g'i 1000 dan ortiq material jamlangan bo'lsa, bugungi kunga kelib, eksponatlar soni 17 146 donaga yetdi va bu ko'rsatkich yildan-yilga oshib bormoqda.



Muzey fondi ilmiy xodimlar izlanishlari natijasida, qolaversa, qatag'on bo'lgan shaxslarning oilalaridan olingan ma'lumotlar, hujjatlar, foto, gazeta-jurnal, kitob va buyumlar bilan to'dirilib, yangilab kelinmoqda.

### "O'ttiz yettinchi yil turalari"ning katta qirg'ini

Muzey tomonidan qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, nomlarini oqlash, jadidlar merosini o'rganish borasida qilinayotgan ishlar turli ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, telekanallarda yoritilishiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, 2019-yildan "O'zbekiston tarixi" telekanali bilan hamkorlikda muzey texnik bazasidan foydalangan holda qatag'on qurbonlari bo'lgan 200 dan ziyod vatandoshimiz hayoti, faoliyati va fojiali taqdiriga bag'ishlangan "Millat fidoyilari" turkum ko'rsatuvlari tayyorlandi va efigra uzatildi.


Muzey faoliyatida ilmiy tadqiqot hamda nashr ishlari alohida o'rin egallaydi. O'tgan davr mobaynida muzey ilmiy jamoasi tadqiqotlari natijasida 55 ta monografiya, 35 ta ilmiy maqolalar to'plami, 5 ta o'quv qo'llanma, gazeta va jurnallarda 850 dan ziyod ilmiy, ilmiy-ommabop maqola nashr etilgan.



Shuningdek, muzey tomonidan 2009-yildan buyon nashr etib kelinayotgan "Tarixning noma'lum sahifalari" to'plamini alohida qayd etib o'tish joiz. 2022-yilda mazkur to'plamning 10-kitobi nashrdan chiqdi. Prezident farmoyishi asosida esa birgina 2022-yilning o'zida qatag'on qurbonlari hamda o'sha davr tarixiga bag'ishlangan 10 ga yaqin kitob chop etildi. "Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi. Yo'lko'rsatkich" (o'zbek, rus, ingliz tillarida), "Millatimiz fidoyilari" kitoblari, "O'ttiz yettinchi yil turalari. 1937-1938-yillardagi katta qirg'in qurbonlariga bag'ishlangan ocherk va maqolalar" to'plami, "Jadidchilik fenomeni" monografiyasi, J.Sultonmurodov va M.Sultonmurodova hayoti, faoliyati, ijodiy

ishlari, maktublari va xotiralaridan iborat "Chiroq ko'targan ayol" kitobi, G'ozni Yunusning hali nashr yuzini ko'rmagan tanlangan asarlaridan iborat "G'ozni Yunus. Ko'z oching, Turon eli" kitobi shular jumlasidandir.

Yuqorida qayd etilgan farmoyishga bino-an, mustabid sovet tuzumi davrida qatag'on qilingan va muayyan sabablarga ko'ra oqlanmay qolgan vatandoshlarimizni oqlash borasida ham muhim ishlar qilindi. Muzey tomonidan Bosh prokuratura va Oliy sudga yozilgan arizalar natijasida Oliy sud tomonidan 2021-yil 25-avgustda sovet davrida qatag'on qilingan 115 nafar, 2022-yil 6-yan-



xotirasi davlat muzeyi rahbariyati tomonidan muzey ilmiy jamoasi, mamlakatimizning tanliq tarixchi oilalaridan iborat ishchi guruh tashkil etilgan.

jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi yangi O'zbekistonda qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur, deya ta'kidladi. Zero, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti uchun lozim bo'lgan barcha sohalarida innovatsion g'oyalarni joriy qilish edi.

Jadid taraqqiyotparvarlarining hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish va tadqiq etish to'g'risidagi mazkur da'vat bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari yanada jadallashishini taqozo etdi.

Ushbu vazifalar ijrosi o'laroq, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Turkiy davlatlar tashkiloti, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda boshqa tashkilot va muassasalar hamkorligida 2023-yil 6-7-mart kunlari Toshkentda "Jadidlarining ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hissasi" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Anjuman O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi raisligi doirasida o'tkazilgan uning nufuzini yanada oshirdi.

Konferensiyada AQSH, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya, Qozog'iston, Shvetsiya va Germaniya kabi mamlakatlardan 30 ga yaqin nufuzli jadidshunos olimlar ishtirok etdi.

O'zbekiston Prezidenti xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'llab, unda tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mingga qadamda Uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishi mumkin bo'lgani, afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini ro'yogga chiqarishga imkon bermaganini qayd etdi. "Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanimiz, jadid bobolarimizning gumaniistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma'naviy kuch-quvvat olatimiz", dedi Prezident.

Tabrik nutqidagi "Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyotparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa, deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadriini anglab yetadi!" kabi fikrlar yangi O'zbekistonda haqqoniy tariximizni, jadid bobolarimizning merosini chuqur va atroflicha o'rganish, xalqimizga targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotganida dalolat beradi.

Tarixiy xotirasi bo'lmagan, tarixni unutgan, o'z ajdodlarining qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q. Buyuk kelajak sari intilayotgan ona Vatanimiz — yangi O'zbekistonda esa tarixiy an'analar ro'yogga chiqib, milliy an'analar, qadriyatlar qadr topdi, xalqimizning orzu-armonlari ushaldi.

Eng asosiy, yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barobarida, inson xotirasi va qadri shunday yuksak darajada ulug'lanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboq va munosib ibratdir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK  
MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ununani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846. 43690 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taaboq. Ofset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov  
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilak ko'chasi, 32-uy